

AYRIM FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA LEKSIK VARIANTLANISH

*Botirova Rayxona Abdurofiq qizi, SamDU tayanch
doktoranti*

LEXICAL VARIATION IN SOME PHRASEOLOGICAL UNITS

Batirova Raykhona Abdurafiq kizi, PhD student at SamSU

ЛЕКСИЧЕСКАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ В НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

*Батырова Райхона Абдурафик кызы, базовый
докторант СамГУ*



<https://orcid.org/0009-0008-4198-5893>

e-mail:

rayxonabotirova39@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada kishilarning ruhiy holati, xarakter-xususiyatini ifodalovchi “ko‘ngil”, “yurak”, “qalb”, “dil” leksemali iboralar tahlil qilinadi. Bu frazemalar til sathidagi tutgan o‘rniga ko‘ra o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zaro variantlilik munosabatini yuzaga keltiradi. Variantlilik ushbu frazemalar o‘rtasida eng ko‘p kuzatiladigan hodisa bo‘lib, frazemalarning semantik va uslubiy xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: frazema, ibora, variantlilik, sinonimlik, fe‘l frazema, sifat frazema, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub.

Аннотация: В статье анализируются фразеологизмы с лексемами “кўнгил” (душа), “юрak” (сердце), “қалб” (сердце), “дил” (сердце), выражающие психическое состояние и черты характера людей. Эти фраземы имеют особое значение в соответствии с их местом на языковом уровне и образуют между собой отношения вариативности. Вариативность является наиболее часто наблюдаемым явлением среди этих фразем и связана с их семантическими и стилистическими особенностями.

Ключевые слова: фразема, фразеологизм, вариативность, синонимия, глагольная фразема, адъективная фразема, разговорный стиль, художественный стиль.

Abstract: The article analyzes phraseological units with the lexemes “ko‘ngil” (soul), “yurak” (heart), “qalb” (heart), “dil” (heart) expressing the mental state and character traits of people. These phrasemes have special significance according to their place at the language level and form a relationship of variation between themselves. Variation is the most frequently observed phenomenon among these phrases and is related to their semantic and stylistic features.

Keywords: phrase, phraseologism, variability, synonymy, verbal phrase, adjective phrase, colloquial style, literary style.

KIRISH. Ma‘lumki, ko‘ngil, qalb, dil, yurak sinonim so‘zlari “insonning ruhiy kechinmalari, ma‘naviy dunyosi his qilinadigan joy, ramziy markaz” [10.357] ma‘nolarini anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu yaqin ma‘noli leksemalar asosida shakllangan sinonim va variantdosh

frazemalar anchagina: ko‘ngli to‘q, yuragi yorildi, diliga tugdi, qalbini yoritmoq kabi. Bunday leksemalar frazemalarning semantik tayanch komponenti vazifasida kelib, morfologik jihatdan sifat (ko‘ngli bo‘sh, dili vayron) va fe‘l frazemalarni

(“ko‘nglini bo‘shatmoq”, “ko‘nglini uzmoq”) shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Frazeologik variantlar o‘zbek tilining kuchli tasviriy-uslubiy vositalaridan sanaladi. Bu hodisa o‘zbek tilshunosligida dastlab Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu asosda e’lon qilingan monografiyasida o‘zbek tilidagi frazemalarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asoslab berdi. Ishda frazemalardagi ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik, antonimlik, shakldoshlik va variantdoshlik [3] hodisalari juda chuqur va asosli materiallar bilan tadqiq etilgan. B.Yo‘ldoshevning “Frazeologik uslubiyat asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida frazeologik sinonimlarni frazeologik variantlardan [7] farqlash belgilarini ko‘rsatib bergan, shuningdek, A.Mamatov [1], M.Vafoyeva [6], U.Rashidovalarning [5] ilmiy tadqiqotlarida ham bu masalaga to‘xtalib o‘tadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. “Ko‘ngil”, “yurak”, “qalb”, “dil” komponentli frazemalardan shaxslarning ruhiy holatini tasvirlashda foydalaniladi. Bu iboralar qo‘rquv (“yuragi shuv etdi”, ko‘ngliga xavotir oraladi), xafalik (ko‘ngli ranjidi, ko‘ngli buzildi), rahmdillik (ko‘ngli iyidi, yuragi yumshadi), xotirjam bo‘lish, tinchlanish (ko‘ngli joyiga tushdi), bezovta bo‘lish (yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, ko‘ngli g‘ashlandi), ruhan azoblash (ko‘nglini ezdi, yuragini ezdi), diltang bo‘lish (yuragi siqildi, ko‘ngliga qil sig‘maydi), sevinib, juda kuchli hayajonlanish (yuragi toshdi, yuragi yorildi, ko‘ngli shodlandi, ko‘ngliga sevinch oftobi mo‘raladi, bahri dili ochildi) kabi shaxslarning ruhiy-emotsional holatlarini ifodalaydi.

Adabiy tildagi “ko‘ngli yumshadi” frazemasini kitobiy uslubga xos bo‘lib, “rahmdilligi uyg‘ondi” [O‘TFL,287] ma’nosini anglatadi: Jalil vaziyatni yumshatishga urinmasa ham Asadbek xayoliga kelgan fikrdan ko‘ngli biroz yumshagani tufayli yigitga boshqa tanbeh berish niyati yo‘q edi (T.Malik). Badiiy matnlarda “ko‘ngli yumshadi” frazemasining inversiyaga uchragan holati ham ko‘p kuzatiladi, bu esa matnda ohangdorlikni yuzaga keltiradi: Zaynab shunday deb chiqmoqchi edi, Abdusamad yo‘lini to‘sdi. Kesakpolvon “Asadbekning asl qizi”, deb yanglishmagandi.

Yumshoq ko‘ngilli Abdusamad singlisining yo‘liga g‘ov bo‘lolmadi (T.Malik).

Bu frazemaning so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanuvchi “yuragi yumshadi”, “qalbi yumshadi”, “dili yumshadi” kabi variantlari ham mavjud. Bu variantdosh frazemalarning semantik tayanch komponentlari – yurak, dil, qalbning sinonimi bilan almashinuvi hamda grammatik tayanch komponent umumiy leksema qurilishidan iborat.

Frazemalarni frazeologik variant deyish uchun Sh.Rahmatullayev ta’kidlaganidek, quyidagi belgilar kuzatiladi:

1. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatik o‘zgarishlar tufayli biri ikkinchisidan o‘rib chiqqan bo‘lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim.

2. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko‘ra so‘nish-so‘nmasligidan, qay darajada o‘qilishidan qat’i nazar).

3. Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma’noni anglatishi lozim (ular o‘zaro ma’noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin).

4. O‘zaro o‘rib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo‘lishi shart (ikki va undan ortiq iboraning qurilishida umumiy leksik komponentning mavjud bo‘la olishidan qat’i nazar) [3.145].

Adabiy tildagi “ko‘ngli yumshadi” frazemasiga nisbatan “yuragi yumshadi” iborasi so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi: “Tabibboshining rangi bo‘zardi. Lablari titradi. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabibboshining tosh yuragi yumshagan edi” (T.Malik). Berilgan misolda “to‘sh yuragi yumshagan” frazemasini ikki qarama-qarshi ibora (yuragi tosh – yuragi yumshoq)ning qismlarini birlashtirgan holda bir matn doirasida qo‘llaydi. Ikki frazema qismlarining birlashtirib ishlatilishi iboraning obrazlilikini, emotsional-ekspressivligini oshirgan. Xuddi shunday holatni quyidagi misolda ham uchratish mumkin. “Dili xufton” hamda “dili yorishmoq” frazemalarining komponentlari yaxlitlanib “xufton dili (birdan) yorishib ketdi” ko‘rinishida qo‘llanadi: “O‘tgan kuni peshinda bir yigit kelib: “Sharif akamgila xat berib yubordila”, deganida xufton dili birdan yorishib ketdi. Ammo “Besh ming berib yubor”, degan gapni o‘qib ajablandi” (T.Malik).

Shaxsning rahmdillik holatini ifodalovchi “qalbi yumshadi” hamda “dili yumshadi” iboralari asosan badiiy uslubda qoʻllaniladi: “Abdurahmon tabibnikida davolanayotgan kezlari uning *qalbi* bir oz *yumshaganday boʻlib edi*. Keyin yana asliga qaytdi” (T.Malik); “Qizimning eriga koʻngli yoʻq, – deb oʻyladi Manzura. – Farzand koʻrsa balki *dili yumshar...*” (T.Malik);

Yuqorida qayd etilgan variantdosh frazemalar asosida ayni bir obraz, yaʼni kishining his-tuygʻu va kechinmalari manbai yotadi. Bu frazemalar bir-biridan nutqiy, uslubiy belgilariga koʻra farqlanadi. Yana shunisi xarakterliki, bu frazemalar “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”da ham, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da ham oʻz aksini topmagan.

Tilda “yurak”, “qalb”, “koʻngil”, “bagʻir”, “dil” komponentlari bilan shakllangan frazemalar hech qanday maʼno oʻzgarishsiz oʻzaro almashinib turli variantlar hosil qilishini kuzatish mumkin: *yuragi sezmoq// qalbi sezmoq// koʻngli sezmoq; yuragi oʻrtanmoq// qalbi oʻrtanmoq// koʻngli oʻrtanmoq; yuragiga chiroq yoqmoq// koʻngliga chiroq yoqmoq// bagʻriga chiroq yoqmoq// qalbiga chiroq yoqmoq; yuragiga choʻgʻ solmoq// qalbiga choʻgʻ solmoq; koʻngli gʻashlanmoq// yuragi gʻashlanmoq//dili gʻashlanmoq* kabi. Yuqoridagi frazemalarning variantlashuvida semantik tayanch soʻzlar – kishining sezgisi, ruhiy kechinmalari sodir boʻladigan va saqlanadigan joy maʼnosini ifodalashi asos boʻlib keladi.

Badiiy matnda personajlar tavsifini berishda ijodkorlar frazeologik birliklar yoki ularning variantlaridan keng foydalanishadi: “Agar Zaynabning *yuragi kengroq* boʻlganida bunday bachkanaliklarga eʼtibor bermagan boʻlardi. Kengga keng dunyo, torga tor dunyo deganlariday, hozir uning koʻngliga hatto qil ham sigʻmaydi” (T.Malik); “Chaqiring ularni, qadamlariga hasanot. Tortinmay chaqiravering, uyimiz keng, uy torlik qilsa, Xudo xohlasa *bagʻrimiz kengdir*” (T.Malik); “Bilardim, lekin boshqalarga oʻxshab kuyib-yonmasdim. Xudo insof bersin, derdim. – *Koʻnglingiz keng ekan*” (T.Malik).

Koʻrinib turibdiki, yuqoridagi uchta misoldagi variantdosh frazemalar kishilarning feʼl-atvori bilan bogʻliq boʻlib, bu sifat frazemalar “uncha-munchaga tashvish tortmaydigan, gʻam chekmaydigan, mehr-muruvvatli” maʼnosi bilan qatnashgan. Lekin yurak, qalb, koʻngil, bagʻir kabi soʻzlar bilan shakllangan frazemalarni har doim

ham bir-biri oʻrnida qoʻllab boʻlmaydi: “Qizning *qalbini zabt etgan* yigitning kasbi zargar ekan” (T.Malik); “Gumon baʼzan Zaynabning xiyonatiga ishontirmoqchi boʻlardi, *yurakni zabt etgan* mehr esa bunga yoʻl qoʻymasdi” (T.Malik). Berilgan misollardagi “yurakni zabt etgan”, “qalbini zabt etgan” frazemalari oʻzaro erkin almashinib qoʻllana oladi, ammo bu frazemalarning “bagʻir” komponenti bilan shakllangan varianti mavjud emas.

Adabiy tildagi “diltang boʻlmoq, ziq boʻlmoq” maʼnolarini anglatuvchi “koʻngli xufton boʻldi” // “dili xufton boʻldi – dilini xufton qildi” feʼl frazemalari badiiy uslubda keng qoʻllaniladi: “Mahkumalar orasidagi goʻzallarning aksari bu xizmatdan boʻyin tovlamas, aksincha, chorlanmay qolishsa *koʻngillari xufton boʻlardi*” (T.Malik); “Ular Abdurahmon tabibnikida shifo topayotgan Asadbekning iymonga kirishiga ishonib, Yaratganga shukurlar aytishgan edi. Undan sal ilgariroq gap talashib qolishganda Asadbek iymonga daʼvat etilishiga javoban yarim hazil, yarim chin ohangida “Koʻramiz, sening iymoning kuchlimikin yoki mening shaytonim qudratliroqmikin?” deb javob qaytarib, Jalilning *dilini xufton qilgan edi*. Oʻshanda ham Jalil tavbaga undagan, biroq doʻsti gapni hazilga burib yuborgan edi” (T.Malik).

“Koʻngli xufton boʻldi” frazemasining “boʻldi” feʼl komponentining qisqaruvi iborani sodda, ixcham shaklga ega qilgan, natijada “koʻngli xufton” sifat frazeologizmi shakllangan: “Baʼzan esa qandaydir arzimagan ish katta bir tashvish koʻrinishida unga arz qilinadi-yu, *xufton koʻngli* battar zulumot qaʼriga choʻkadi” (T.Malik).

“Koʻngli xufton” frazemasini “Shaytanat” asarida badiiylik mezoniga mos ravishda uslubiy noziklik bilan okkazional qoʻllanishi kuzatiladi: “Oʻzining *koʻngli* esa yana *xufton qorongʻuligiga yuz burdi*. Chunki u “oqqush qoʻshigʻi”ning asl maʼnosini bilardi: aytadilarkim, oqqush oʻlimi yaqinlashganini payqab, balandlarga parvoz etarkan-da hayotidagi soʻnggi qoʻshigʻini kuylarkan...”(T.Malik)

“Mushtariy biroz jim turdi. Xuddi sukunatga quloq tutib opasi aytmoqchi, hilolning shivirlashlarini eshitgandek boʻldi. Soʻng boshini koʻtarib Choʻlponoyga tikildi: – Oллоh, Oллоh, ayriliq shoming zimziyoligi qanchalar dilni xufton-u jonni sargardon etguvchi emish.

Cho'lponoy singlisining dardli gaplarini eshitib, kulimsiradi-da, qoshlari, yuzlarini silay turib, dedi: -Vah, vah! Visol tongining ravshanligi qanchalar dilga yoqimlig-u jonni quvontirguvchi emish..."(T.Malik)

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ko'ngil, yurak, qalb, dil komponentli frazemalar shaxslarning ruhiy holati, xarakter-xususiyatini ifodalab, shakliy va mazmuniy xususiyatlari bilan bog'liq holda o'zaro turli munosabatlarga kirishadi. Maqola mavzusi doirasida uni frazeologik variantdoshlik hodisasi misolida ko'rib o'tdik. Ko'ngil, yurak, qalb, dil leksemalari asosida shakllangan frazemalar o'rtasidagi variantlilik hodisasi yozuvchiga badiiy tasvirni keng miqyosda yoritib berishda, qahramonlar fikrini yorqin va ta'sirli bo'lib ifodalanishiga yordam beradi. Shuningdek, ko'ngil, yurak, qalb, dil so'zlari bilan shakllangan frazemalarning turli variantlarda qo'llanishi takroriylikning oldini olib, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маматов Абдуғафур. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш асослари. АКД, -Тошкент, 2000. -Б,316.
2. Раҳматуллаев Ш. Феъл фразеологик бирликларда мавжудлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. №4.-В.32-36.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1966. –264 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Қомуслар бош тахририя, 1992. –382 б.
5. Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили. Филол.ф.ф.д.диссертацияси. – Самарқанд, 2018. –140 б.
6. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.фан.ном.диссертацияси. – Тошкент, 2009. -127 б.
7. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри. 1998. – 200 б.
8. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Фил.фан.док. дисс.автореферати. –Тошкент, 1993. – 50 б.
9. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Т.: “Муҳаррир” нашриёти. 2013.-300 б.
10. О'zbek tili frazeologik lug'ati. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
11. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. I jild. N.Mahmudov tahriri ostida.-Т.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.-504 bet.

